

Amaliy aloqalar rivoji

O'zbekiston Respublikasi Farmatsevtika tarmog'ini rivojlantirish agentligi tashabbusi bilan O'zR FA O'simlik moddalari kimyosi institutiga Tojikiston Respublikasi farmatsevtika sohasida faoliyat yurituvchi tadbirkorlar tashrif buyurdi va Institut faoliyati hamda laboratoriyalarda amalga oshirilayotgan ishlar bilan yaqindan tanishdi.



Mehmonlar O'simlik moddalari kimyosi institutining GMP texnologiyalari asosida dori substansiyalari ishlab chiqarish korxonasi bo'ldi va bu yerdagi jarayonlar bilan tanishib chiqdi.

Tashrif yakunida Institut mutasaddilari bilan ikki tomonlama hamkorlik aloqalarini mustahkamlash, istiqbolli yo'nalishlar muhokama qilindi. Kelgusida hamkorlikda amalga oshiriladigan ishlar belgilab olindi.